Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Go‘zalxon Sattorova – o‘qituvchi

Termiz davlat pedagogika instituti (Surxondaryo, O‘zbekiston)
E-mail: guzalxon.sattorova@mail.ru
ORCID: https://orcid.org//0009-0004-1620-4486

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA METAKOGNITIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK SHART- SHAROITLARI

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari hamda o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganish jarayonida ushbu kompetentlikdan foydalanish usullari tahlil qilingani. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv strategiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini oshiradi, matnni tushunish darajasini yaxshilaydi va til ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi. Maqolada CLIL, Task-Based Learning, Total Physical Response metodlari, shuningdek, skimming, scanning, self-monitoring, self-questioning va reflektiv kundaliklar kabi metakognitiv strategiyalar mazmuni yoritilgan. Tadqiqot natijalari metakognitiv strategiyalarni muntazam qo‘llash talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishi, matnni tushunish darajasini oshirishi hamda mustaqil o‘rganish va reflektiv fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: metakognitsiya, metakognitiv kompetentlik, ingliz tilini o‘qitish metodikasi, CLIL, Task-Based Learning, Total Physical Response, o‘qish strategiyalari, self-monitoring, reflektiv kundaliklar, metodik shart-sharoitlar.

Guzalkhon Sattorova – teacher
Termez State Pedagogical Institute (Surkhandarya, Uzbekistan)

METHODOLOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING METACOGNITIVE COMPETENCE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Abstract. This article examines the methodological opportunities for developing metacognitive competence in prospective English language teachers, as well as the ways in which students can utilize this competence in the process of learning English. Research findings indicate that the application of metacognitive strategies enhances students’ ability to learn independently, improves text comprehension, and effectively develops language skills. The article also analyzes metacognitive strategies with examples, including CLIL (Content and Language Integrated Learning), Task-Based Learning, and Total Physical Response. In addition, strategies such as self-monitoring, self-questioning, reflective diaries, skimming, scanning, and analytical reading are discussed with practical examples. The findings indicate that the regular use of metacognitive strategies improves students’ language skills, enhances reading comprehension, and develops independent learning and reflective thinking abilities.

Keywords: metacognition, metacognitive competence, English language teaching methodology, CLIL, Task-Based Learning, Total Physical Response, reading strategies, self-monitoring, reflective journals, Methodological conditions.

Гузалхон Сатторова – преподаватель
Термезский государственный педагогический институт (Сурхандарья, Узбекистан)

МЕТОДИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ МЕТАКОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье рассматриваются методические возможности развития метакогнитивной компетентности у будущих учителей английского языка, а также способы использования этой компетентности учащимися в процессе изучения английского языка. Результаты исследований показывают, что применение метакогнитивных стратегий повышает способность учащихся к самостоятельному обучению, улучшает уровень понимания текста и эффективно развивает языковые навыки. В статье с примерами анализируются метакогнитивные стратегии, включая CLIL (Content and Language Integrated Learning - интегрированное обучение содержанию и языку), обучение на основе задач (Task-Based Learning), и Total Physical Response. Кроме того, на практических примерах рассматриваются такие стратегии, как self-monitoring, self-questioning, reflective diary, skimming, scanning и analytical reading. Результаты исследования показывают, что регулярное применение метакогнитивных стратегий способствует развитию языковых навыков студентов, повышению уровня понимания текста, а также формированию самостоятельного обучения и рефлексивного мышления.

Ключевые слова: метакогниция, метакогнитивная компетентность, методика преподавания английского языка, CLIL, Task-Based Learning, Total Physical Response, стратегии чтения, самоконтроль, рефлексивные дневники, Методические условия.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim jarayonida talabalarni nafaqat bilim bilan ta’minlash, balki ularning mustaqil fikrlash va o‘z o‘quv faoliyatini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, ingliz tilini o‘rganishda talabalarning o‘z o‘quv jarayonini boshqarish, natijalarni tahlil qilish va baholash qobiliyati katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan metakognitiv kompetentlik tushunchasi til ta’limi jarayonida alohida o‘rin tutadi. Metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish faqat nazariy yondashuv bilan cheklanmasligi kerak. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tilni o‘rgatish jarayonida nafaqat ilmiy balki hayotiy va boshqa fan bilimlarini o‘zaro bir biriga chambarchas bog‘lagan holda amaliyotga tadbiq etishi ayni muddaodir. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagi metodik shart-sharoitlar zarur:

1. O‘quv muhiti - talabalarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish imkoniyatini beradigan interaktiv dars muhiti. Masalan, guruh ishlari, muhokama sessiyalari va real vazifalar (CLIL va TBL asosida).

2. O‘qituvchi yondashuvi - o‘qituvchi metakognitiv strategiyalarni o‘rgatish va ularni dars jarayonida muntazam qo‘llash bo‘yicha yo‘l-yo‘riq beradi. O‘qituvchi talabalarni o‘z-o‘zini baholash, refleksiv kundalik yuritish va self-monitoringga o‘rgatadi.

3. Strategiyalarni integratsiya qilish - metakognitiv strategiyalar (rejalashtirish, monitoring, baholash) til o‘rganish metodlari bilan birlashtiriladi, masalan:

CLIL - boshqa fan mazmuni bilan birlashtirilgan til darslari,

Task-Based Learning (TBL) - real vazifalar orqali o‘rganish,

Total Physical Response (TPR) - tilni harakat bilan uyg‘unlashtirish.

4. Resurslar va materiallar - interaktiv materiallar, multimedia, matnlar, audio va video materiallar talabalarni metakognitiv yondashuvlarni amalda qo‘llashga rag‘batlantiradi.

5. Baholash va feedback tizimi – o‘quvchilarning metakognitiv strategiyalarni qanchalik samarali qo‘llayotganini baholash va doimiy teskari aloqani amalga oshirish zarur. Masalan, refleksiv kundaliklar, o‘z-o‘zini baholash jadvallari yoki guruh muhokamalari.

Ushbu shart-sharoitlar to‘g‘ri tashkil etilgan taqdirda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari nafaqat tilni o‘rganish jarayonida, balki kelajakda o‘z kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda ham metakognitiv kompetentlikni faol qo‘llay oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Metakognitsiya bu o‘rganish jarayonidagi o‘z fikrlashini anglash, rejalashtirish, monitoring va baholash kabi faoliyatlarni o‘z ichiga olgan murakkab psixologik jarayon. Bu tushuncha dastlab Flawell (1996) tomonidan kiritilib, u til o‘rganish jarayonida talabalarning o‘z o‘zini boshqarish qobiliyatini kuchaytiradi, deb hisoblagan.

Hacker, Dunlosky va Graesser (1998) hammualifligidagi “Metacognition in Educational Theory and Practice” metakognitsiyaning ta’lim jarayonidagi rolini chuqur tahlil qiluvchi ilmiy asar. Bu manba nazariy asoslarni mustahkamlash uchun juda foydali.

Til o‘rganishda metakognitiv kompetentlik - bu talabaning o‘z til o‘rganish jarayonini ongli va maqsadli boshqarish qobiliyati bo‘lib, uni shakllantirish va rivojlantirish ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muhimdir. Ingliz tilini o‘rgatishda metakognitiv yondashuvlar talabaning til bilimini chuqur o‘zlashtirishiga, o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini oshirishga hamda mustaqil o‘rganishga erkinlik berishga xizmat qiladi (Oxford, 1990; Richards & Rodgers, 2001). Metakognitiv kompetentlik o‘quvchining o‘z o‘rganish jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu qobiliyat bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun ayniqsa muhim, chunki ular kelajakda nafaqat til o‘rgatadi, balki o‘quvchilarda samarali o‘rganish strategiyalarini shakllantiradi (Brown, 2007).

Deanna Kuhn – psixologiya va ta’lim sohasida metakognitiv fikrlash, ilmiy norasmiy fikrlash va konstruktivizmga oid ishlari bilan tanilgan bo’lib, uning ishlari til o‘rganuvchilarda tanqidiy fikrlash va refleksiya yondashuvini rivojlantirishni ko‘rsatadi (Kuhn, 2000).

Metakognitiv kompetentlik quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. Rejalashtirish (Planning) – o‘quv jarayonini oldindan tashkil etish, maqsad va vazifalarni belgilash (Flawell, 1996)

2. Monitoring (Nazorat) – o‘rganish jarayonida o‘z faoliyatini doimiy kuzatib borish (Hacker et al., 1998).

3. Baholash (Evaluation) – o‘rganish natijalarini tahlil qilish, xatoliklarni aniqlash va to‘g‘rilash (Rawson & Dunlosky, 2020).

Masalan, talaba yangi matn o‘qiyotganda, avvalo maqsadni belgilaydi: “Men ushbu matn orqali yangi so‘zlarni o‘rganish va asosiy fikrni tushunishim kerak.” Keyin o‘qish jarayonida self-monitoring qiladi: “Qaysi so‘zlarni tushunmadim? Ularni qanday o‘rganishim mumkin?” Oxirida baholash qiladi: “Men matnning asosiy mazmunini tushundimmi? Yangi so‘zlarni eslab qoldimmi?”

Til o‘rganish strategiyalari bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan lingvist-olim Cynthia White til o‘rganishda metakognitiv, kognitiv, ijtimoiy va affektiv strategiyalariga alohida e’tibor qaratadi. U til o‘rganishda samarali strategiyalarni tahlil qilgan, shu jumladan metakognitiv strategiyalarni markaziy o’ringa qo‘yadi (Oxford, 1990).

Metakognitiv strategiyalar talabalarda nafaqat til bilimini oshiradi, balki ularni mustaqil o‘rganishga, refleksiyaga va o‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatadi. Masalan, tadqiqotlarda quyidagilar aniqlangan:

1) Talabalar tomonidan metakognitiv strategiyalarning o’zlashtirilishi tilni yanada chuqur anglash, uning mazmunini mustaqil izohlash va lingvomadaniy tahlilni amalga oshirish imkonini beradi (Tolipova, 2025).

2) Listening (tinglab tushunish) bo‘yicha tadqiqotlarda metakognitiv strategiyalarni qo‘llash talabalarning tinglab tushunish darajasini oshirgan (Vygotsky, 1978).

3) Tadqiqotlarda talabalar o‘z nutq topshirig‘ini bajarish jarayonida vazifalarning murakkabligini anglab yetib, o’zlashtirishga oid kognitiv strategiyalarni moslashtirish orqali samaradorlikni oshirgani aniqlangan (Hacker et al., 1998).

CLIL metodida til ko‘nikmalari boshqa fan mavzulari bilan birlashtiriladi. Masalan, talabalarga ingliz tilida tarix yoki fan mavzusida materiallar berib, ularni tahlil qildirish orqali bilim va til ko‘nikmasi bir vaqtda rivojlantiriladi. Bu metod metakognitiv yondashuvlarni qo‘llashga juda mos, chunki talabalar o‘z o‘rganish jarayonini rejalashtiradi va monitoring qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, CLIL yondashuvida talabalarning til darajasi va motivatsiyasi oshadi, shu bilan birga ularning tilni izchil tushunish va tahlil etish qobiliyatlari ham mustahkamlanadi.

CLIL (Content and Language Integrated Learning) - til o‘rganish boshqa fanlarning mazmuni bilan birlashtiriladi. Masalan, tarix darsida ingliz tilida muhim voqealarni o‘rganish.

Task-Based Learning (TBL) - o‘quv jarayoni real vazifalar asosida tashkil etiladi. Masalan, talabalar ingliz tilida shahar xaritasini yaratish yoki sayohat rejasi tuzish kabi topshiriqlarni bajaradi.

Total Physical Response (TPR) - tilni o‘rganish harakatlar bilan birlashtiriladi. Masalan, o‘qituvchi: “Stand up, sit down, turn around” kabi buyruqlar beradi, talabalar harakat bilan javob beradi.

O‘quvchilarda metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish strategiyalari:

1. Self-questioning (O‘z-o‘zini savolga tutish): Talaba matnni o‘qiyotganda o‘ziga savollar beradi: “Bu paragrafning asosiy g‘oyasi nima?”, “Qaysi ma’lumot men uchun muhim?” Ushbu strategiya o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va reflektiv tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi (Flavell, 1996; Kuhn, 2000).

2. Self-monitoring (O‘z-o‘zini kuzatish): Talaba o‘rganish jarayonida o‘z faoliyatini doimiy nazorat qiladi, xatolarini aniqlaydi va tuzatadi. Bu strategiya o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish va o‘quv jarayonini ongli nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi (Hacker, Dunlosky & Graesser, 1998).

3. Reflective diary (Refleksiv kundalik): Har bir darsdan keyin talaba o‘rganilgan mavzularni yozadi, nima qiyin bo‘lganini va qanday qilib yaxshilash mumkinligini qayd etadi. Reflektiv kundalik yuritish talabalarda reflektiv fikrlash va o‘z-o‘zini baholash kompetensiyasini rivojlantiradi (Rawson & Dunlosky, 2020).

4. Skimming va Scanning: *Skimming* matnning umumiy mazmunini tezda tushunish, *Scanning* esa matndan kerakli ma’lumotni izlab topishga xizmat qiladi. Ushbu strategiyalar o‘quvchilarning o‘qish tezligi va matn bilan ishlash samaradorligini oshiradi (Harmer; Richards & Rodgers, 2001).

5. Intensive va Analytical Reading: *Intensive reading* matnni diqqat bilan o‘rganish, *Analytical reading* esa matnni tahliliy o‘rganib, muhim fikrlarni ajratib olishga qaratiladi. Bu strategiyalar til birliklarini chuqur anglash va mustaqil tahliliy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega (Brown; Oxford, 1990).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Quyidagi jadvalda metakognitiv strategiyalar va ularning amaliy qo‘llanilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

1-jadval.

Metakognitiv strategiyalar va ularning amaliy qo‘llanilishi tahlili

Strategiya	Faoliyat misoli	Kutilgan natija
Self-questioning	Matnni o‘qiyotganda savollar berish	Asosiy fikr va muhim ma’lumotni ajratib olish
Self-monitoring	Yozma topshiriqni bajarishda xatolarni tekshirish	Xatoliklarni aniqlash va tuzatish
Reflective diary	Dars oxirida kundalik yuritish	O‘rganish jarayonini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash
Skimming	Matnni tez o‘qish	Umumiy mazmunni tez tushunish
Scanning	Ma’lumotni izlab topish	Kerakli faktlarni aniqlash
Intensive reading	Matnni diqqat bilan o‘rganish	Matn mazmunini chuqur tushunish
Analytical reading	Matnni tahlil qilish	Mustaqil fikrlash va dalillarni ajratish

Metakognitiv strategiyalarning til o‘rganishdagi samarasi shundan iboratki, ular o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu strategiyalar yordamida talabalar o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish jarayonida o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqarishni o‘rganadi. Shuningdek, metakognitiv yondashuvlar mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarga yechim topish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar matnning asosiy mazmunini chuqur tushunish, muhim ma’lumotlarni ajratib olish hamda kerakli faktlarni tez to-

pish ko‘nikmalarini egallaydi. Bundan tashqari, metakognitiv strategiyalar o‘quv jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash orqali talabalarda o‘z xatolarini aniqlash hamda ularni mustaqil ravishda tuzatish malakasini shakllantiradi. Natijada, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish va reflektiv fikrlash qobiliyatlari yanada mustahkamlanadi.

Metakognitiv strategiyalar va ularning amaliy qo‘llanilishi yuqoridagi jadvaldan tashqari, quyidagi ko‘rinishda ham bayon etiladi:

1. Rejalashtirish (Planning). Talaba vazifani bajarishdan oldin quyidagilarni belgilaydi (Flawell, 1996):

- O‘rganish maqsadi - yangi so‘zlarni topish va ularni kontekstda ishlatish,
- Strategiya - matnni skimming orqali umumiy mazmunni tushunish.

2. Monitoring (Nazorat). Talaba o‘qish yoki tinglab tushunish davomida o‘z-o‘zini tahlil qiladi (Hacker et al., 1998): “Bu yerda nima tushunmadim?”,“Qaysi so‘z yoki iboralar qiyin bo‘ldi?”.

3. Baholash (Evaluation). Topshiriq tugagach, talabalar quyidagilarni bajarganmi deb baholaydi (Rawson & Dunlosky, 2020):

Topshiriq tugagach, talabalar quyidagilarni bajarganmi deb baholaydi:

- Vazifa maqsadi amalga oshdimi?
- Qaysi strategiya samaraliroq bo‘ldi?

Bu jarayon talabalarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini shakllantiradi va til ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

XULOSA

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, metakognitiv strategiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarning til ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish, mustaqil o‘rganish qobiliyatini shakllantirish hamda o‘z o‘quv faoliyatini ongli ravishda boshqarish imkonini beradi. Ayniqsa, rejalashtirish, monitoring va baholash kabi metakognitiv komponentlar talabalarning o‘zlashtirish jarayonini tizimli tashkil etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar davomida self-questioning, self-monitoring, reflective diary, skimming, scanning va analytical reading kabi strategiyalar talabalarning matnni chuqur tushunishi, asosiy g‘oyalarni ajrata olishi hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur strategiyalar orqali talabalar o‘z xatolarini tahlil qilish, ularni bartaraf etish va samarali o‘rganish usullarini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada o‘quvchilarda reflektiv fikrlash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi.

Shuningdek, CLIL, Task-Based Learning va Total Physical Response kabi zamonaviy metodlar metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratishi kuzatildi. Ushbu metodlar til o‘rganish jarayonini amaliy faoliyat bilan bog‘lab, talabalarning darsdagi faolligi, motivatsiyasi va kommunikativ ko‘nikmalarini oshiradi. Ayniqsa, real vazifalarga asoslangan topshiriqlar va integratsiyalashgan ta’lim yondashuvlari talabalarning tilni tabiiy va ongli ravishda o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish uchun interaktiv o‘quv muhiti, samarali feedback tizimi va zamonaviy resurslardan foydalanish muhim metodik shart-sharoitlardan biri hisoblanadi. O‘qituvchining yo‘naltiruvchi va motivatsion roli esa talabalarni mustaqil o‘rganishga undovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, metakognitiv strategiyalarni ingliz tilini o‘qitish jarayoniga tizimli ravishda joriy etish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish, ularning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish hamda kelajakda o‘quvchilarda mustaqil va ongli o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni yanada takomillashtirish va amaliyotga keng joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘qituvchilar dars jarayonida metakognitiv strategiyalarni qo‘llashni oldindan rejalashtirishi, ularni zamonaviy baholash vositalari bilan uyg‘unlashtirishi hamda o‘quvchilarga reflektiv mashqlarni muntazam ravishda taqdim etishi zarur. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘z o‘quv faoliyatini ongli ravishda boshqarish, o‘zlashtirish jarayonini tahlil qilish va samarali o‘rganish usullarini tanlash imkoniyatini kengaytiradi. Metakognitiv kompetentlikni rivojlanti-

rish orqali talabalarning mustaqil o‘rganish qobiliyati sezilarli darajada oshadi va bu ularni kelajakda o‘z bilimlarini mustaqil ravishda mustahkamlashga yo‘naltiradi. Shuningdek, topshiriqlarni bajarish jarayonida qaror qabul qilish, strategiyalarni vaziyatga moslashtirish hamda muammolarni tahliliy hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Bundan tashqari, metakognitiv strategiyalar til ko‘nikmalarini chuqur anglash va ularni uzoq muddat davomida mustahkamlash imkonini beradi. O‘quvchilar o‘z xatolarini aniqlash va tuzatish orqali reflektiv fikrlashni shakllantiradi hamda tilni ongli ravishda o‘zlashtirishga erishadi. Ayniqsa, CLIL, Task-Based Learning (TBL) va Total Physical Response (TPR) kabi integratsiyalashgan metodlar metakognitiv yondashuvlarning amaliy samaradorligini yanada oshiradi. Ushbu metodlar talabalarning til ko‘nikmalari, mustaqil fikrlashi va o‘z o‘quv faoliyatini boshqarish qobiliyatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun metakognitiv strategiyalarni chuqur o‘zlashtirish va ularni dars jarayonida samarali qo‘llash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Douglas J. Hacker, John Dunlosky, & Arthur C. Graesser (Eds.). (1998). *Metacognition in educational theory and practice*. Routledge.
2. Tolipova G. F. (2025). Metacognitive strategies awareness and success in learning English. *Modern Education and Development*.
3. Douglas Brown H. *Principles of language learning and teaching*.
4. Jack C. Richards & Theodore S. Rodgers. *Approaches and methods in language teaching*.
5. John H. Flavell (1994). Cognitive monitoring. In W. P. Dickson (Ed.), *Children's oral communication skills* (pp. 35–60). New York, USA.
6. John H. Flavell (1996). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry.
7. Kurt A. Rawson & John Dunlosky (Eds.). *The Cambridge handbook of cognition and education*. Cambridge University Press.
8. Lev Vygotsky. *Mind in society: The development of higher psychological processes*.
9. Скворцова, Ю. В. (2005). *Метакогнитивные компоненты педагогического мышления преподавателя высшей школы* (Кандидатская диссертация). Ярославль, Россия.